



**SHE'RIY MATNLARDA OKKAZIONALIZMLAR
(Eshqobil Shukur she'riyati misolida)**

Ibragimov Xayrulla Hamdamovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali dotsenti, f.f.f.d. (PhD),

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17703390>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Eshqobil Shukur ijodi, xususan, uning she'riy asarlaridagi badiiy til xususiyatlari, shoir she'riyatida uchraydigan okkazional birliklar, ularning tildagi semantik o'ziga xosliklari, badiiy vazifalari va uslubiy ahamiyati tadqiq qilinib, shoir she'riyatidagi okkazional birliklarning poetik tabiati va ularning semantik, stilistik hamda estetik vazifalari aniqlanib, shoirning individual til yaratuvchanligi tadqiq qilingan.*

Kalit so'zlar: *Til, badiiy til, vazifa, uslub, okkazionalizmlar, okkazional birliklar, poetika, poetik maqsad, semantika, obraz, paradoks, badiiy ifoda, mavjudli, yo'qlik, his-tuyg'u.*

Abstract: *This article examines the work of Eshqobil Shukur, in particular, the features of the artistic language in his poetic works, the occasional units found in the poet's poetry, their semantic peculiarities in the language, artistic functions and stylistic significance, identifies the poetic nature of occasional units in the poet's poetry and their semantic, stylistic and aesthetic functions, and examines the poet's individual linguistic creativity.*

Keywords: *Language, artistic language, task, style, occasionalisms, occasional units, poetics, poetic purpose, semantics, image, paradox, artistic expression, existence, absence, emotion.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается творчество Эшқобиля Шукюра, в частности, особенности художественного языка его поэтических произведений, окказиональные единицы, встречающиеся в поэзии поэта, их семантические особенности в языке, художественные функции и стилистическое значение, выявляется поэтическая природа окказиональных единиц в поэзии поэта, их семантические, стилистические и эстетические функции, а также рассматривается индивидуальное языковое творчество поэта.*

Ключевые слова: *Язык, художественный язык, задача, стиль, окказионализмы, окказиональные единицы, поэтика, поэтическая цель, семантика, образ, парадокс, художественное выражение, существование, отсутствие, эмоция.*

Eshqobil Shukur she'riyati o'zining falsafiy mushohadalarga boyligi, so'zga yangicha yondashuvi, obraz va ifodaning poetik yangiligi bilan ajralib turadi. Uning she'rlarida insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, mavjudlik va yo'qlik, ishq va sukut, so'z va jimlik o'rtasidagi murakkab falsafiy tafakkur ifodasini ko'ramiz. Shoir o'z badiiy tilini shakllantirishda tildagi tayyor qoliplarga to'liq suyanmaydi, balki, yangi ma'noli so'zlar yaratish, mavjud so'zlarga noodatiy ma'no yuklash orqali o'ziga xos okkazional til tizimini barpo etadi. Shuning uchun ham Eshqobil Shukur she'riyatini o'rganishda okkazionalizmlar masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Chunki shoirning individual uslubi aynan uning so'z yasashdagi novatorligi, so'z semantikasiga bergan yangi "burchaklari" orqali namoyon bo'ladi. Misol uchun ijodkorning quyidagi misrasiga e'tibor qarataylik:



“Sukut kuylaydi, dard so‘zlaydi” [5.108].

Bu yerda ikki okkazional birlik mavjud: “sukut kuylaydi” va “dard so‘zlaydi”. **“Sukut”** – odatda tinchlik, jimlikni bildiradi. Shu bilan birga, “kuylaydi” fe‘li bilan birlashtirilganda, sukut jonli, musiqiy va harakatli obrazga aylanadi. **“Dard so‘zlaydi”** – dard shunchaki his qilinadigan narsa emas, balki faol sub‘ekt sifatida ifodalanadi. Bu birikmalar she‘rga ritmik va musiqiy ohang beradi. Okkazionalizm orqali shoir ichki kechinmalarni vizual va akustik tasvirga aylantiradi. “Sukut” – ichki poklanish, ruhiy tinchlik, “Dard” – insonning ruhiy iztirobi. Shu tarzda, okkazional birikmalar shoirning falsafiy dunyosini aks ettiradi.

Okkazionalizmlar – bu shoirning ruhiy olamiga ochiladigan “kalit”, uning tafakkur ko‘lamini, his-tuyg‘u ohangini, dunyoni idrok etish tarzini ochib beruvchi vositadir.

Til – bu millat tafakkurining ko‘zgusi, xalq ruhiy olamining ifodasidir. Har bir ijodkor til orqali o‘z dunyoqarashini, his-tuyg‘ularini, ruhiy kechinmalarini ifoda etadi. Ammo ijodkorning bu jarayondagi o‘ziga xosligi shundaki, u tildagi tayyor qoliplarga to‘liq tayanmaydi, balki o‘z ichki kechinmalariga mos yangi so‘zlar va iboralarni yaratadi. Tilshunoslikda bunday yangicha, individual so‘zlar okkazionalizmlar deb yuritiladi.

Okkazionalizm (lot. *Occasion* – holat, voqea, bir marta sodir bo‘ladigan) – muallif tomonidan ma‘lum bir badiiy, uslubiy yoki emotsional maqsadda yaratilgan, tilda umumiydashmagan, individual so‘z yoki so‘z birikmasidir [1.116.]. Masalan, o‘zbek tilida **“jimlik kuylaydi”, “yurak shamollaydi”, “ko‘ngilning yuki”** kabi iboralar grammatik jihatdan to‘g‘ri, lekin semantik jihatdan noodatiy. Ular shoir tafakkurining mahsuli, okkazional birlik sifatida vujudga keladi. Tilshunoslikda bu hodisani ilk bor chuqur o‘rganishni rus olimi V.V.Vinogradov, keyinchalik o‘zbek stilistikasida A.Madvaliyev, M.Qo‘shjonov, A.Abduazizovlar davom ettirgan. Ularning ta‘kidlashicha, okkazional birliklar tildagi neologizmlarning alohida turi bo‘lib, ular ko‘pincha muallif tilining individual xususiyatlarini ifoda etadi. Shunday qilib, okkazional so‘z – bu tilning tabiiy jarayonida paydo bo‘ladigan yangilik, lekin u mumxalq tili me‘yorlariga to‘liq singib ketmaydi. Uning hayoti – muallif matni doirasida mavjud. Ba‘zan okkazionalizmlar neologizmlar bilan adashtiriladi.

Eshqobil Shukur singari shoirlar so‘z bilan “o‘ynash”, unga yangi rang va ohang berish orqali okkazionalizmlarni badiiy ifoda vositasiga aylantiradi. Eshqobil Shukur she‘riyatidagi til hodisalarini, xususan, okkazionalizmlarni o‘rganish orqali biz o‘zbek poetik tili imkoniyatlarining kengligini va so‘zning yaratuvchanlik salohiyatini yanada chuqurroq anglaymiz. Bu esa o‘zbek adabiyotshunosligi, stilistika, poetika, leksikologiya sohalarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun muhim manba bo‘la oladi.



Eshqobil Shukur she'riyatidagi okkazonalizmlarni alohida tadqiq etish, ularni tizimli tarzda o'rganish hozircha yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu jihatdan mazkur maqola:

Eshqobil Shukur poetikasidagi individual so'z yaratuvchanlik jarayonini ilmiy asosda tahlil etadi;

Shoirning okkazonal birliklari orqali zamonaviy o'zbek she'riyatidagi yangilanish jarayonlarini yoritadi;

Okkazonalizmlarning tildagi badiiy va falsafiy-funksional yuklamasini ochib beradi.

Okkazonalizmlar – bu tildagi ijodiy yangilikning eng nozik, ammo eng ta'sirli shaklidir. Ular shoir tafakkurining mahsuli bo'lib, so'z va ma'no o'rtasidagi chegarani kengaytiradi. Okkazonal birliklar orqali ijodkor o'z ichki olamini, falsafiy mushohadalarini, ruhiy kechinmalarini yangi ifoda shaklida namoyon etadi.

Eshqobil Shukur she'riyatini tahlil qilishda ana shu okkazonal hodisalar markaziy o'rinni egallaydi. Chunki ularning har biri shoir poetik dunyosining semantik kaliti, so'z orqali yaratilgan ruhiy manzaradir.

Eshqobil Shukur – zamonaviy o'zbek she'riyati rivojida o'ziga xos falsafiy-ruhiy yo'nalishni shakllantirgan ijodkorlardan biridir. Uning she'rlari inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini, hayot va o'lim, borliq va yo'qlik, sukut va so'z o'rtasidagi murakkab falsafiy ziddiyatlarni badiiy tarzda ifodalaydi. Shoirning poetik olamida jimlik, sukut, shamol, ko'ngil, yurak, so'z, ishq, ruh kabi timsollar markaziy o'rinni egallaydi. U ana shu obrazlar orqali insonning ichki olamini, ruhiy kechinmalarini ifoda etadi. Eshqobil Shukur she'riyatida so'z faqat ma'no tashuvchi vosita emas, balki ruhiy energiya manbai sifatida talqin qilinadi. Shoirning poetikasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, u so'zga falsafiy yondashadi, uni bir vaqtning o'zida ham estetik, ham ramziy hodisa sifatida ko'radi. Shu sababli, uning she'rlarida tildagi mavjud birliklarga yangicha semantik yuklamalar beriladi. Bu esa Eshqobil Shukur tilining eng asosiy belgisi – okkazonalizmga moyillikni ta'minlaydi. Eshqobil Shukur poetik tafakkurida tashqi voqealikdan ko'ra, ichki kechinmalar, ruhiy tajribalar ustuvor. U “so'z orqali jimlikni eshitish”, “sukutni so'zlantirish”, “ko'ngil ovozini tinglash”ga intiladi. Bu esa uning she'rlarida kontrast, antonimik obrazlar, semantik paradokslarni keltirib chiqaradi. Masalan: **“Sukutlarim so'zlaydi”**, **“yuragim shamollaydi”**, **“jimlik kuylaydi”** kabi misralar shoirning individual ifoda uslubining mahsulidir.

Semantik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak “Ko'zqush” – bu okkazonal so'z, ya'ni shoir tomonidan yaratilgan metaforik birlik. Ko'z va qush so'zlari birlashtirilib, **ko'ngilning kuzatuvchan, nozik tabiati** ifodalanadi. Estetik jihatdan esa so'zning



fonetik tuzilishi (q, sh, s) o‘quvchi ongida **havodor, erkin** obraz uyg‘otadi. Bu okkazionalizm orqali she‘r **animatsion, jonli tasvirga** ega bo‘ladi. Ramziy tomondan olib qaraganda Ko‘zqush – **ruhiy erkinlik**, so‘z orqali o‘zini ifoda etish, ijodiy qobiliyat ramzi. Shoir okkazional so‘z bilan o‘z poetik dunyosining shaxsiy timsolini yaratgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Eshqobil Shukur she‘riyatining tili – bu xalqona ildizlardan oziqlangan, lekin zamonaviy, falsafiy va ramziy ma‘nolar bilan to‘yingan til tizimidir. Shoir o‘z asarlarida so‘zning oddiy ma‘nosidan tashqariga chiqadi, unga ruhiy-falsafiy mazmun yuklaydi. Uning individual uslubi, bir tomondan, o‘zbek mumtoz she‘riyatidagi ramz va ma‘nolarga tayanadi, ikkinchi tomondan esa, okkazional ifodalar orqali tilni yangilaydi, so‘zga yangi hayot baxsh etadi.

Adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. — Toshkent, 1982.
2. Madvaliyev A. Hozirgi o‘zbek tili. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Nurmonov A. Til va nutq munosabati. — Toshkent: Fan, 1999.
4. Xudoyberganova M. O‘zbek tilining poetik leksikasi. — Toshkent, 2010.
5. Eshqobil Shukur. Tanlangan asarlar. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2015.
6. Yo‘ldoshev M. Zamonaviy o‘zbek poeziyasi tili. — Toshkent, 2020.